

TURIZM XIZMATLARI BOZORI RIVOJLANISHINING HUDUDIIY TAHLILI VA MUAMMOLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17971423>

Ziyatova S. B
Normamatov N.D
Qulmamatova B.O

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrası o'qituvchilari.

Annotatsiya

2018-219-yillarda Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish chora tadbirlari dasturi qabul qilinmoqda. Unda hududning yangilangan zamonaviy qiyofasini yaratish, transport infratuzilmasini takomillashtirish, xorijdan tashrif buyurayotgan sayyohlarga sifatli xizmatlar ko'rsatish kabi muhim masalarga alohida e'tibor berilgani ziyorat turizmi imkoniyatlaridan unumli foydalanishga qulay muhit yaratadi.

Kalit so'zlar

Turizm, iqtisodiyot, ziyorat, soliq, turistik sayohatlar, ichki biznes, xarajat, eksport.

Аннотация

В 2018–2019 годах принимается программа мероприятий по комплексному развитию туристического потенциала Сурхандарьинской области. В ней особое внимание уделено таким важным вопросам, как создание обновлённого современного облика региона, совершенствование транспортной инфраструктуры, предоставление качественных услуг туристам, приезжающим из-за рубежа. Все это создаёт благоприятные условия для эффективного использования возможностей паломнического туризма.

Ключевые слова

туризм, экономика, паломничество, налог, туристические путешествия, внутренний бизнес, расходы, экспорт.

Annotation

In 2018–2019, a program of measures for the comprehensive development of the tourism potential of the Surkhondaryya region is being adopted. The program pays special attention to important issues such as creating a renewed modern

image of the region, improving transport infrastructure, and providing high-quality services for foreign visitors. All these efforts create a favorable environment for the effective use of pilgrimage tourism opportunities.

Keywords

tourism, economy, pilgrimage, tax, tourist trips, domestic business, expenses, export.

Turizmning iqtisodiyotga to'g'ridan to'g'ri samarasi bu tovarlar aylanmasi oshishidan, investitsiyalar jalb qilinishidan, soliqlar orqali turli darajadagi byudjet to'lovlari daromad qismlari oshishida ifodalanadi. Turizm "Daromad-xarajat" zanjirini tashkil qila turib, turizm xalq xo'jaligining boshqa yondosh tarmoqlarining rivojlanishini rag'batlantiradi.

Turizm sohasining ijtimoiy ahamiyati jamiyatning psixofiziologik resurlarining qayta tiklanishi, ish o'rinlari yaratilishi va aholi bandligi ko'rsatkichlarining oshishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga hududiy iqtisodiyotga, ko'ngil ochish, dam olish, davolanish va boshqa maqsadlarda sayohat qilishni ko'zda tutadigan ichki turizm rivojlanishiga ta'sir qilishini unutmazlik kerak. Masalan, mahalliy turistlar 2018 yilda AQShda mamlakat ichida 933 mlrd AQSh dollari xarajat qildilar va bu qilingan yalpi xarajatlarning 86 % ini tashkil qilgan. Mamlakat ichida qilingan bu xarajatlar to'g'ridan to'g'ri 7,7 mln ishchi o'rinlarining yaratilishiga sabab bo'ldi. Xalqaro turizm sharoitlarida ichki biznes va turistik sayohatlar AQSh turizm industriyasining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Hozirgi kunda eksport daromadi bo'yicha ichki turizm yoqilg'i, kimyo va avtomobil sanoat tarmoqlaridan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. Ko'pgina rivojlanayotgan davlatlar uchun u nihoyatda zarur bo'lgan yangi ish o'rinlarini ochadigan va rivojlanish imkoniyatini beradigan asosiy daromad manbalaridan biri bo'lib turibdi. Ichki turizm haqiqatan ham ulkan istiqbolga egadir.

Turizm hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsata oladigan tarmoq hisoblanadi. Ushbu xalq xo'jaligi turi iqtisodiyotning aralash tarmoqlarida daromadlarning hosil bo'lishini ta'minlaydigan multiplikatsion effektga egadir. Turizm turlari ichida ichki turizm alohida o'ringa ega bo'lib, asosiy daromad manbalaridan biridir. Shunga qaramasdan, ichki turizm O'zbekistonda, Xitoy, AQSh, Italiya kabi davlatlardan farqli ravishda, endi rivojlanishga boshlamoqda. Mashhur xorij mamlakatlarida dam olish imkonini mavjud emasligi va valyuta kurslarining oshib ketishi bilan bog'liq hozirgi davr iqtisodiy sharoitlari yaqin kelajakda mamlakat ichida turistik oqimni oshirish imkonini beradigan ichki

turizmni rivojlantirishning nisbatan samarali vositalarini qidirib topish kun sayin dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

O'zbekistonga 2024 yilda jami 8,2 mln nafar chet el fuqorolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan, shundan:

.ayollar - 4077,1 ming nafar (49,8 %)

.erkaklar - 4104,3 ming nafar (50,2%)

2025 yilning 6-oyida esa 3,5 mln ortiq chet el fuqorolari tashrif buyurgan. Shularning 10,6 ming nafari AQSH dan tashrif buyurgan.

Mamlakatimizning Surxondaryo, Buxoro, Samarqand, Xiva kabi butun dunyoga mashhur va ma'lum shaharlari iqtisodiyotning strategik tarmog'i hisoblangan turizmning rivojlanishida alohida hissa qo'shmoqda.

Surxondaryo viloyatidagi turizmini boshqa viloyatlardan tog' va ekoturizm bilan ajralib turadi. Mintaqada tabiiy landshaftning ajoyib go'zalligini nomoyon qiladigan go'rlar, massivlar va daralarni ko'rish mumkin. Bu joylar sayyohlar va sarguzasht izlovchilarning katta e'tiborini tortadi. Bu yerda uzoq o'tmish yodgorliklari bilan tanishishingiz mumkin. Shu jumladan ochiq osmon ostidagi muzeylar, buddaviylar ibodatxonalari, qadimgi aholi punktlari, xarobalari, qadimiy qal'alar, ibodat joylarini ko'rsatib o'tish joiz. Surxondaryo vodiysi yangi madaniyat rivojining sarchashmasi bo'lgan. U tarixga taniqli shoirlar, dinshunoslar, islom dini arboblari, faylasuflarning nomlarini berdi.



Ularning sharofati bilan o'rta asrlarning ajoyib me'moriy yodgorliklari paydo bo'ldi. Ushbu yodgorliklarning ahamiyati butun Islom olami uchun muhim. Viloyatning eng qadimiy shahri va markazi bo'lgan Termizda va uning atrofida zardushtiylar, nestorianlar, buddistlar kabi turli xalqlarning shaharlari va xarobalari, me'morchilik arxeologiya obidalari, shuningdek Islom me'morchiligi yodgorliklari saqlanib qolgan. Termizdan uncha uzoq bo'lmagan joyda esa, fil

suyagidan yasalgan shaxmat donalari topilgan. Surxondaryo viloyati geografik jihatdan O'zbekistonning eng janubiy mintaqasidir. U shimolda Hisor tizmasi, sharqda Bobotog', G'arbda Ko'hitang va Boysun tog'lari etaklarini, janubda esa Amudaryoni egallaydi.


Surxondaryo viloyatida turizmni rivojlantirish uchun 374 tarixiy, madaniy, san'at, me'moriy obidalar, noyob arxelogik qazilmalar mavjud. Viloyatning tabiiy so'lim go'shalari, maftunkor sharsharalari, ma'danli suv va shifobaxt tog' tuzlari agro-eko, tog' va tibbiyot turizmini keng yo'lga qo'yishga qulay imkoniyat yaratadi. Qadimiy bu yurtning o'ziga xos urf-odat va an'analari, milliy hunarmandchilik buyumlari ham dunyo ahlida katta qiziqish uyg'otib keladi. Viloyatdagi boy tarixga ega qadamjolar, muqaddas ziyoratgohlar hududda ziyorat turizmini joriy etib, nafaqat mahalliy balki, xorijlik sayyohlar oqimini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq hozirgacha viloyatning bu boradagi salohiyatidan samarali foydalanishga e'tiborsizlik bilan yondashib kelinayotgan edi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida belgilab berilgan vazifalar ijrosi doirasida ishlab chiqilgan ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha

"yo'l xaritasi" bu boradagi ishlarni yangi bosqichda ro'yobga chiqarishda xizmat qilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yil 19-20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida vohaning turizm salohiyatidan samarali foydalanib, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga alohida e'tibor qaratgan edi. Shunga muvofiq viloyatda 2018-219-yillarda Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish chora tadbirlari dasturi qabul qilinmoqda. Unda hududning yangilangan zamonaviy qiyofasini yaratish, transport infratuzilmasini takomillashtirish, xorijdan tashrif buyurayotgan sayyohlarga sifatli xizmatlar ko'rsatish kabi muhim masalarga alohida e'tibor berilgani ziyorat turizmi imkoniyatlaridan unumli foydalanishga qulay muhit yaratadi.

O'tmishda Surxondaryo muqaddas islom dinini targ'ib qilgan va uni rivojlantirishga munosib hiss qo'shgan Hakim Termiziy, Iso Termiziy kabi ko'plab buyuk olimlarga beshik bo'lgan, -deydi O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Surxondaryo viloyat vakili Sh.Ibragimov -Boy tarixga ega bu yurtda So'fi Olloyor, Alouddin Attor, Muhammad Zohid singari ulug' zotlar mangu qo'nim topgan. Mazkur dastur asosida Boysun, Termiz, Jarqo'rg'on, Oltinsoy, Denov, Uzun, Sherobod tumanlaridagi muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar rekonstruksiya qilinib, obodonlashtiriladi. Yo'llar ta'mirlanadi. Savdo-hunarmandchilik do'konlari quriladi. Xorijlik sayyohlarning emin-erkin

ziyosat qilishi uchun barcha zamonaviy sharoitlar yaratiladi. Denov tumanida Naqshbandiya ta'limotining asoschisi Hazrat Bahouddin Naqshbandning birinchi xalifasi Alouddin Attor mangu qo'nim topgan ziyosatgoh mavjud. Oltinsoy tumanida "Silsilai oliya" tarkibiga kiruvchi ulug' zotlardan yana biri-Muhammad Zohid maqbarasi turkay tasavvuf ta'limotining yirik namoyondasi So'fi Olloyor qadamjosi va ul zot tomonidan barpo etilgan masjid saqlanib qolgan. Yangi yo'nalishlarda ziyosat turizmini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da aziz avliyolarimiz muqaddas hoki qo'yilgan bu maskanlarni obodonlashtirib, ziyosatchi sayyohlarning tahorat qilishi, namoz o'qishi uchun zamonaviy qulayliklar yaratish, "halol" standartini joriy etish belgilab berilgan.



Ali Al Xakim At Termiziy ziyosatgohi

Mamlakatimizda ziyosat turizmining yo'lga qo'yilayotgani yurtimizda yashab o'tgan buyuk zotlarni yod etib, ularning haqiga duo qilish va ibratli hayot yo'llarini chuqur o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi, -deydi O'zbekiston musulmonlar idorasi viloyat vakili A.Sayfuddinov. -Xorijlik sayyohlarning ham o'tmishda yashab o'tgan aziz avliyolarimizning diniy ta'limoti va islom dini rivojiga qo'shgan salmoqli hissasi bilan yaqindan tanishishga keng imkoniyat yaratadi. Muqaddas qadamjolar atrofi yanada obod, yanada ko'rkam bo'ladi. Ziyosat turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli bunyodkorlik ishlari doirasida Termiz tumanidagi Kokildor ota, Qirq qiz, Sulton Saodat yodgorliklari, Chorgumbaz masjidi, Boysun tumanidagi Hazrati Eshonbobo ziyosatgohi va

shifobaxsh suvi, Hazrati Sulton Valiy, Jarqo'rg'on tumanidagi Xo'ja Samandar Termiziy ziyoratgohlari, Oltinsoy tumanidagi Xo'jaipok ziyoratgohi va shifobaxsh buloq suvlari, Uzun tumanidagi Oq ostona bobo maqbarasi kabi tarixiy obidalar so'lim go'shaga aylantiriladi. Bulardan tashqari viloyatimizda turizimni rivojlantirish uchun tog'li shifobahsh buloqli joylar juda ham ko'p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "2025-2026 yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 15.05.2025 yildagi PF-87-son
2. X.M.Mamatqulov, S.A.Abduxamidov, M.X.Xamitov. Turizm infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.-Samarqand, 2020